

**О'ZBEKISTON MARKAZIY XUDUDLARIDA QOVUNING ASOSIY
KASALLIKLARI**

“O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti”

I-bosqich PhD tayanch doktoranti

Otajonov Anvarjon Abudaraximjon o‘g‘li

Аннотасиyasi: Ushbu maqolada markaziy xududlarida erta, o‘rta, kech pishar qovun navlari dalalarida tarqalgan kasalliklarning tarqalishi va ularning uchrash hududlari, uchrash miqdori va turlari aniqlanilganligi haqida so‘z yuritiladi.

Калит so‘zlari: Qovun, poliz, fuzarioz, un shudiring, kasalliklari, qarshi kurash choralari *Respublika sharoitida ekish uchun kasalika chidamliy tavsiya etiladigan navlar. Qovunni ertapishar – Rohat, o‘rtapishar – Suyunchi–2, Oltin vodiy, Lazzatli, Oltintepa, Obi novvot, Gurvak, Bo‘rikalla, kechpishar – To‘yona, Gurlan, Amudaryo, Gulobi Xorazmiy, Zar gulobi, Saxovat, Umrboqiy, Beshak kabi navlari ekish uchun kasalik bardoshlidir.*

Аннотация: издательства. В данной статье будет рассказано о распространенности заболеваний, распространенных на полях ранних, средних, позднеспелых сортов дынь в центральных регионах и определены регионы их распространения, количество и виды укусов.

Ключевые слова: дыня, дыня, фузариоз, мучнистая роса, болезни, меры борьбы сорта, рекомендованные к посадке в условиях республики с устойчивостью к болезням. Болезненно переносят посадку такие сорта дынь, как раннеспелый – Рохат, среднеспелый – Суюнчи–2, Алтын – вэлий, деликатный, Алтынтепа, Оби-новвот, Гурвак, Бурикалла,

позднеспелый-Туена, Гурлан, Амударьинский, Гулоби Хорезмийский, Зар гулоби, щедрый, Умрбокий, Бешак.

Annotation :This article will talk about the distribution of kasans distributed in the fields of early,medium,late ripening melon varieties in the central regions and the determination of the regions of their occurrence, the amount and types of Meet.

Keywords: Melon, melons, fuzariosis,diseases, measures to combat resistant varieties for planting in Republican conditions are recommended. Varieties such as melon early – Pleasant, medium – sized water–2, Golden Valley, delicious, Oltintepa, Obi novvot, Gurovak, Burikalla, Toyona, Gurlan, Amudarya, Gulobi Khorezmiy, Zar Gulabi, generous, lifetime, Beşak are suitable for planting.

Poliz ekinlari mahsulotlari inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat ratsionida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga ko'p hollarda ekin o'suv davrida va keyinchalik hosilni omborxonalarda saqlash paytida, har xil kasalliklar ta'sirida, hosilning ancha qismi nobud bo'ladi va sifati keskin pasayadi. Himoya choralari va boshqa tadbirlarni muntazam qo'llamaslik natijasida kasalliklar, ayniqsa shaxsiy tomorqalarda, ko'p uchraydi va katta zarar keltiradi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 - yil 9-yanvardagi «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3709 - son va 2008 - yil 20 - oktyabrdagi «Oziq-ovqat ekinlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va ekin maydonlarini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4041 - son farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019 - yil 29 - martdagi «2019 - yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish va mahsulot yetishtirishning prognoz hajmlar to'g'risida»gi 259-son qarorida sabzavot mahsulotlari, jumladan, qovun, tarvuz yetishtirish hajmini ko'paytirish va sifati oshirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni ilmiy jihatdan amalga oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014

- yil 5-6 iyunda bo'lib o'tgan «O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zaxiralari» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqida: «Bizning hisob-kitoblarimiz bo'yicha, 2020 yilda meva va sabzavot, uzum va poliz mahsulotlari yetishtirishni 2014 yilga nisbatan kamida 2,3 marta ko'paytirishni mo'ljallayapmiz» – deb ta'kidladilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda "2016-2020 - yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-son qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2004 - yil 29 - martdagi "O'simliklarni himoya qilish xizmatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 148-son qonun mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Kasallik qo'zg'atuvchisini to'g'ri aniqlash, uning rivojlanishi, tarqalishi, bir mavsumdan ikkinchisigacha qanday saqlanishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish va shular asosida ekinni himoya qilishning samarali muddatlarini bilish va usullarini qo'llash lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi hukumatining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi qarorlari va kompleks chora-tadbirlari – aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlaydigan darajada hayotiy zarur oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojlarini kafolatli ta'minlashga yo'naltirilgan. O'zbekistonda sabzavot ochiq maydonda 344,8 ming , poliz 82,7 ming , kartoshka 115,5 ming , pomidor 50 mingdan ortiq maydonlarga ekiladi. Ammo keyingi yillarga kelib olinadigan hosildorlik zararkunanda va kasalliklar ta'sirida bir muncha kamayib, mahsulotni sifatini buzilishiga olib kelmoqda. Oxirgi yillarda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan (2014-2017 y) olib borilgan monitoring ma'lumotlarga ko'ra, o'simliklar unib chiqish davrida sim kurti (*Agriotes meticulosus Cond*), kuzgi tunlam (*Agriotes segetum Den.et Schiff*), nihollik davrida shira (*Aphis*), qovun pashshasi (*Cozpotomya pardalina*) kasalliklardan; fuzarioz so'lish (*Fusarium spp*), rezaktonioz (*Rhizoctonia solani*) va boshqalar tomonidan kuchli zarar keltirishi aniqlangan.

Dolzarbliqi. Markaziy hudud qovunlari o'zining shirin-shakarligi, sarta'mliligi, yil bo'yi yaxshi saqlanishi bilan dovrug'i butun olamga ketgan. Qovunning mevasi ajoyib ta'mga hamda ko'pgina foydali xususiyatlarga egadir. Uning tarkibida 85,0-92,0% suv, 8,0-15,0% quruq modda, 0,8% oqsil, 1,8% kletchatka va 6,2% boshqa uglevodlar, 0,9% moy, 0,6% kul, 20,0-30,0 mg/% C darmondorisi, 0,03-0,07 mg/% boshqa darmondorilar, Zn, Fe, Ca, Mg, K, P kabi mikroelementlar, organik va mineral tuzlar mavjud. Qovun urug'i damlamalari yo'tal, teri va tosh kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Qovun to'y va boshqa tantana dasturxonlarining an'anaviy bezagidir. U har bir oilada huzur bilan iste'mol qilinadi. Qovun etidan turli retseptlar bo'yicha konserva hamda qandolatchilik sanoatida murabbo (shinni), qiyom, xilma-xil shirinliklar tayyorlashda foydalaniladi. Poliz ekinlaridan hozirgi kunning talabiga mos ekologik toza, yuqori va sifatli mo'l hosil yetishtirish xanuzgacha muammo bo'lib kelmoqda. Ayniqsa qovunning ertapishar (obu novvot, kichkin toy, ko'kcha, oq urug;, amir qovun,) navlaridan olinadigan hosilning bir qismi qishloq xo'jaligi kasalliklarlari tushib keskin kamayib ketmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga katta zarar yetkazadi. Keyingi davrlardagi agrotexnologik o'zgarishlar, polizchilikka bo'lgan e'tiborni bir muncha susayganligi, zararkunanda va kasalliklarning zararli xuruji ortib borayotganligi, poliz ekinlari ekiladigan maydonlarining qisqarishi, mahsulot sifatini pasayib ketayotganligi aholini poliz mahsulotiga bo'lgan talabiga to'la javob bermayapti. Dunyoning yetakchi olimlari ta'kidlashicha, zararkunandalar ayrim yillari hosilni 50-100% gacha, antroknos, un shudring kasalligi 30-40%ni, so'lish kasalligi esa 70% gacha hosilni, ayrim turlarini esa butunlay nobud bo'lishiga olib kelgan. O'zbekiston sharoitida ham kasalliklarning salbiy ta'sirini biz ham sezmoqdamiz. Kuzatuv natijalariga qaraganda, qovun fuzariozning tarqalishi va ziyoni boshqa kasalliklarga nisbatan keng tarqalgan.

Ishning maqsadi. Markaziy hududlarida qovun ekinlarining kasalliklarning tur tarkibini aniqlash, aniqlangan turlarning tarqalish areallari

va tarqalish sabablarini o'rganish, rivojlanish biologiyasi, va boshqa ekologik xususyatlarini aniqlash, kerak bo'lsa ularga qarshi kurash choralarini ilmiy asosda ishlab chiqishdan iborat.

Metodi. Tajriba qo'yishda variantlar quyidagi belgilar bo'yicha aniklanadi: qovuning fuzarioz bilan kasallanganligi, uning paykal bo'yicha birdek maksimlanishi tarqalganligi va hosildorligi. Variantlar tajriba o'tkazilladigan davrda doimiy bo'lishi kerak. Kichik variantli tajribalar. Har bir variant 4 katorlan kam bo'lmasligi kerak. Himoya egatlari chekkadagilar bo'lib, 6-8 qatorlikda 2-4 tadan egat, agar 8 dan Ko'p bo'lsa, ikki yondan 4 tadan, jami 8 kator koldiriladi. Hisobli egatlar har variantda o'rtadagilardir. Hisoblashlarda barcha o'simliklar sonin olib, sog'lom va fuzariozga chalinganlarga ajratiladi. Qulay bo'lishi — uchun qatordagi barcha o'simliklar hisoblanadi, shu bilan birga, qator ohirida kasal va soglom qovunlar soni aniklanadi va yozib qo'yiladi namuna shahmat usulda olindi.

ILMIY IZLANISHLARNING NATIJALARI

Markaizy hududlarida barcha poliz ekinlari ekilgan dalalardan aniqlangan kasallik turlar quyidagicha ro'yxat asosida keltirildi.

Fuzarioz so'lish -*F. oxysporum* f.sp.

Un-shudring- *Erysiphe cichoracearum* f

Alternariya – *Alternaria cucumber*

Makrosporioz- *makrosporioz inaequalis*

Kassaliklar orasida *F. oxysporum* f.sp. *Erysiphe cichoracearum* f, *Alternaria cucumber*, *makrosporioz inaequalis* qovun ekinda uchrashi aniqlanildi. Qovoqdoshlar oilasi ekinlarining mevalarini zararlashiga ko'ra sifatida ashaddiy kasallik hisoblangan *F. oxysporum* f.sp. keltirib o'tishimiz mumkin.

Bu kasalliklarning Xorazm vohasi bo'ylab tarqalish sabablari hali to'liq aniqlanmagan. Markaziy hududlarida poliz ekinlarida uchraydigan boshqa kasalliklarning biologiyasi, ekologiyasi va tarqalish areali o'rganib chiqilmoqda.

Xulosa

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qovun dalasida 30 ga yaqin kasallagan nusxalarida gerbariylar yig'ildi va 4 turga mansubligi asoslab berildi. Ilmiy izlanishlar o'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot Instituti G'oz, sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarining zararli organizmlariga qarshi kurashish laboratoriyasi bo'limi tajriba dalalari va laboratoriyasida davom qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.B. A. Hasanov, R.O. Ochilov, R.A. Gulmurodov. Sabzavot, kartoshka hamda poliz ekinlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash. Toshkent 2009

2.Sheraliev A.Sh., Raximov U.X. Qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. Toshkent-2014

3.O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlarni ro'yxati. Toshkent 2013.

4.agroflora.ru agronomu.com glav-dacha.ru

5. Sheraliev A., Rahimov U. Qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi. Toshkent, 2008

6. Androsov A. O kulture din v Srednei Azii i mestnie ix sorta.//«Promishlennoe sadovodstvo i ogorodnichestvo».- 1940.- № 1-4, - 98-100 b.

7. Arasimovich V.V. Bioximiya dini. // V kn.: «Bioximiya kulturnix rasteniy». - M. - 1938. - T. 4. - 295-328 b.

8. Ashurmetov A.A. O samostoyatel'nosti roda Melo Adans. // V sb.: «Problemi soxraneniya i ispolzovaniya geneticheskix resursov selskoxozyaistvennix kultur dlya selektsionnoy raboti». - Toshkent - 1995. - 166-176 b.

9. Balashev N.N. Baxchevodstvo. // T. «O'qituvchi». - 1976. - 423 b.

10. Bel-Kuznetsova V.F., Zhitneva N.E. Dini Uzbekistana. // T. Izd. Komiteta nauk UzSSR. - 1937. - 127 b.

Belik V.F. Baxchevie kulturi. // M.: «Kolos». - 1982. - 186 b.

11. Bo'riev X.Ch., Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. // T.: «Mexnat». - 2000. - 115 b.

12. Dudko P.N., Karimov A.K., Ermoxin B.N., Uspenskaya E.V. Atlas «O'zbekiston qovunlari. Dini Uzbekistana». // T.: UDN - 1962. - 184 b.

13. www.ziyonet.uz

14. www.referat.uz